KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 55 (585) 2025-YIL, 22-NOYABR

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

MAQOLALAR TANLOVI G‘OLIBLARI VA FAOL ISH TIROKCHILARI TAQDIRLANDI

Andijon shahrida “Adolat mezoni” gazetasi tahririyatining Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan “Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati” nomli loyihasi doirasida maqolalar tanlovining navbatdagi g‘oliblari va faol ishtirokchilarini taqdirlash tadbiri o‘tkazildi.

Tadbirni Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi viloyat hududiy bo‘limi boshlig‘i Zarifaxon Axmedova ochib berdi va viloyatda fond tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar doirasida olib borilayotgan ishlar haqida batafsil gapirib o‘tdi.

Shuningdek, “Adolat mezoni” gazetasi tahririyati tomonidan amalga oshirilgan loyiha dolzarbligi haqida to‘xtalib yoshlarni korrupsiyaga befarq bo‘lmaslikka chaqirdi.

Gazeta muharriri Maxpura Artiqova tanlov e’lon qilingandan buyon yuzga ortiq maqolalar kelib tushganligi va mazkur maqolalar gazetaning “Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati” nomli maxsus sahifasida yoritilganligini hamda unda yoshlar ishtirokiga alohida e’tibor qaratilganligini ta’kidladi.

Tanlov natijalarga ko‘ra, 1-o‘rinni O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Ikromjon Mansurov va Sevinch Asqarova, 2-o‘rinni Dilbarxon Abdumajidova va Sevara Alimova, 3-o‘rinni Roxilaxon Sulaymonova va Xadichaxon Jaloliddinovalar qo‘lga kiritib, diplom va grant mablag‘idan ajratilgan pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Bundan tashqari, loyihada faol ishtirok etgan O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo‘limi qoshidagi “Yosh jurnalistlar” mahorat maktabining 20 nafar o‘quvchilar tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Yakunda g‘oliblarga grant mablag‘laridan ajratilgan diplom va pul mukofoti, faol ishtirokchilarga tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari topshirildi.

Dilbar ABDUMAJIDOVA, “Adolat mezoni” gazetasi muxbiri.



ILLATNI YENG, YURTDOSHIM!

Tasavvur qiling boshqalar uchun qiyin va yechilishi murakkab bo‘lgan masalani yechish siz uchun oson bo‘lsa, aynan siz bajarib turgan vazifa o‘sha odamlar zarurati uchun bo‘lsa siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz? Bu savolim qiyinlik qilgan bo‘lsa, faraz qilishingiz uchun namuna sifatida xohlagan bir kasbni misol qilib olishingiz mumkin?

Siz bajarayotgan ishga ko‘p odamlar muhtoj va ular ichida qariyalar, yoshlar, qarindoshlar va yot odamlar bor. Agar bir tartibda desangiz orqada sizning qarindoshlaringiz, tanishlaringiz va hurmatli obro‘li, boy va yuqori lavozimda ishlaydigan odamlar qarab turgan bo‘lsa. O‘ylab ko‘ring, menimcha, bu siz uchun qiyin.

(Davomi 3-betda).

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ

HAR QANDAY JAMIYATNING TARAQQIYOTI, XALQNING FAROVONLIGI VA DAVLATNING OBRO‘SI ADOLATGA, HALOLLIKKA VA QONUN USTUVORLIGIGA BOG‘LIQ. AMMO AFSUSKI, INSONIYAT TARIXI DAVOMIDA SHUNDAY ILLAT BORKI, U HAR QANDAY TIZIMNI IZDAN CHIQARADI, ADOLATNI SOYA QILADI VA ODAMLARNI ISHONCHSIZLIKKA YETAKLAYDI. BU ILLAT — KORRUPSIYADIR.

Korrupsiya so‘zi lotincha “corruptio” — “buzilish, halollikdan chekinish” degan ma’noni anglatadi. Uning mohiyati shundaki, ayrim shaxslar shaxsiy manfaat yo‘lida o‘z xizmat vazifalarini suiiste’mol qiladilar, pora oladilar yoki beradilar, adolatni sotadilar. Bu nafaqat qonunbuzarlik, balki insoniylikka, vijdonga va vatanparvarlikka xiyonatdir.

(Davomi 3-betda).

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

ILLATNI YENG, YURTDOSHIM!

(Davomi. Boshi 1-betda).

Ammo shunday odamlar borki, bu masalani o‘z nafsi uchun pullik tomonini ma’qul topadi. Bu holatni hozirgi kundagi zamonaviy nomlanishi korrupsiya deb ataladi. Qadimda bu holat qanday atalgani men uchun noma’lum, lekin bu holat bir asrlar oldin boshlangan deb o‘ylayman, ammo bu darajada bo‘lmagani aniq. Bugungi kunga kelib bu illat shunday rivojlanyaptiki bunga barham berish uchun butun dunyoda kurash boshlangan. Ko‘plab idora – tashkilotlar kirish qismi devorlariga eslatmalar ilib tashlangan. Korrupsiya uchun qonunchiligimizda muqarrar jazo tayinlangan lekin bu hali ham davom etmoqda va ko‘zga ko‘rinmasligicha qolmoqda.

Korrupsiya ichimizda, uni har kim o‘zi yengishi kerak. Bu narsani odam ichida shakllanishi nafsining ko‘yiga kirishi degan bo‘lardim. Bunga qo‘l uruvchi har ikkala “beruvchi va oluvchi” tomon ham bir narsani tushunishi vijdoni va qonun oldida javob berishini unutmasligi kerak. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida korrupsiya uchun qanday muqarrar jazo berilishi ko‘rsatib qo‘yilgan.

Siz-chi! Siz kimni ko‘proq aybdor deb topgan bo‘lar edingiz o‘z nafsini quli bo‘lgan oluvchinimi yoki har narsani pul bilan sotib olsa bo‘ladi deb yo‘l tutadigan insonnimi?

Xulosa chiqarish o‘zingizdan chunki korrupsiya bilan shug‘ullangan odamni faqatgina qo‘lga tushganidagina taniysiz xolos. Katta daraxtni egib-bukib xam to‘g‘rilab bo‘lmaganidek, korrupsiyaga aqlini tanigan va lavozimda o‘tirgan insonlar orasida sodir etilyapti. Bu illatni o‘sib kelayotgan yosh avlodga qanday yomon ekanligini ko‘rsata olsak, korrupsiyani tag-tomiriga bolta urgan bo‘lar edik. Umid qilib qolamizki, har bir inson egallab turgan amalida yoki lavozimida vijdonan ishlay olsa, kelajakda bizning mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashda ijobiy natijalarga erishamiz.

Maqolamni “Illatni yeng, yurtdoshim!” deb nomlangan she’rim bilan yakunlayman.

Insoniylik kela qol,
Korrupsiya ket, yo‘qol!
Bizning shior to‘g‘rilik,
Senda bordir o‘g‘rilik.
Bunga bizlar qarshimiz,
Seni yutsak baxtlimiz

Vijdon bilan ishlasak.
Porloq bo‘lar kelajak.
Davlatimiz yuksalsa,
To‘g‘rilikka burkansa,
Birlashishdir sof niyat,
Shunda o‘sar jamiyat.

Ilxomjon MAMASOLIYEV.

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ

(Davomi. Boshi 1-betda).

Korrupsiya nafaqat iqtisodiy sohada, balki ma’naviy jihatdan ham katta talafot keltiradi. U mehnatkash insonlarning ishonchiga putur yetkazadi, yoshlarning kelajakka bo‘lgan ishonchini so‘ndirib qo‘yadi. Masalan, agar bir kishi mehnati bilan emas, pora orqali yuqori lavozimga chiqsa, halol mehnatning qadri qolmaydi. Bu esa jamiyatda adolatsizlik muhitini yuzaga keltiradi. Korrupsiya mavjud bo‘lgan mamlakatda rivojlanish to‘xtaydi, investitsiyalar kelmaydi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari izdan chiqadi. Shu sababli dunyodagi barcha davlatlar bu illatga qarshi qat’iy kurash olib bormoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ishi emas. Bu har bir fuqaroning vijdoni va burchi hisoblanadi. Agar har bir inson pora olishni yoki berishni rad etsa, o‘z burchini halol bajarsa, adolat ustuvor bo‘ladi. Yoshlar orasida halollik, poklik, vatanparvarlik, mas’uliyat hissini kuchaytirish muhimdir. Maktab va kollejlarda “halollik darslari”ning o‘tkazilishi, turli targ‘ibot tadbirlari, ommaviy axborot vositalarida adolatni ulug‘lovchi chiqishlar — bularning barchasi yosh avlod ongida to‘g‘ri hayotiy yo‘nalishni shakllantiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi qat’iy kurash olib borilmoqda. “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun, maxsus agentliklar va jamoatchilik nazorati tizimi — bularning barchasi jamiyatda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalar joriy etilib, inson omilini kamaytirish orqali pora olish va suiiste’mol holatlariga chek qo‘yilmoqda. Bu — yangi, halol, adolatli O‘zbekistonning poydevoridir.

Biz yoshlar bu kurashning asosiy ishtirokchilari bo‘lishimiz lozim. Chunki kelajak bizniki. Biz bilimli, vijdonli va halol bo‘lsak, ertangi kunimiz ham yorug‘ bo‘ladi. Korrupsiyaga qarshi turish — faqat “yo‘q” deyish emas, balki hayotimizni halollik, mehnat va insof asosida qurishdir. Halollik — bu nafaqat insonning sifatidir, balki millatning kuchidir. Shuning uchun ham biz har kuni o‘z hayotimizda “men pora olmayman”, “men adolat tarafdoriman”, “men halol mehnat bilan yashayman” degan shior bilan yashashimiz lozim.

Nargiza BOZAROVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti 4-bosqich talabasi.

KORRUPSIYANING YOSHLAR TARBIYASIGA SALBIY TA’SIRI QANDAY?

Bugungi globallashuv davrida davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi, siyosiy barqarorligi va ijtimoiy adolat tizimi ko‘p jihatdan korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligiga bog‘liq. Korrupsiya — bu mansab vakolatini shaxsiy manfaat yo‘lida suiiste’mol qilishdir. U jamiyatning ma’naviy asoslarini yemiradi, iqtisodiy taraqqiyotni sekinlashtiradi va davlatga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi. Shu bois korrupsiyasiz jamiyat barpo etish nafaqat davlat siyosatining asosiy yo‘nalishiga, balki har bir fuqaroning burchiga aylanishi lozim.

Korrupsiya qadimdan mavjud bo‘lgan illat bo‘lib, tarix davomida turli shakllarda uchrab kelgan. Tarixiy manbalarda mansabdorlar shaxsiy manfaat yo‘lida qarorlar qabul qilgani qayd etilgan. Shu sababli uni butunlay yo‘q qilish oson emas. Ammo uni kamaytirish va unga qarshi qat’iy kurashish mumkin va kerak. Shu maqsadda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy poydevori Konstitutsiya bilan mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalarida korrupsiyaga qarshi kurash, davlat xizmatchilari mas’uliyati va qonun ustuvorligi nazarda tutilgan: 15-moddada qonun ustuvorligi — barcha fuqaro va davlat organlari qonun oldida tengligi qayd etilgan. Bu korrupsiyaga qarshi asosiy huquqiy poydevordir.

Korrupsiyaning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri qanday?

Korrupsiya adolat tamoyillariga zid bo‘lib, halollik va shaffoflik ustuvor bo‘lmagan jamiyatda mehnat qadri yo‘qoladi, bilim va intellektning o‘rni pasayadi. Natijada, yoshlar kelajakka bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi, fuqarolar davlat va qonunlarga ishonchsiz bo‘ladi. Shu bois korrupsiyani tushuntirish va unga qarshi ma’naviy tarbiya berish juda muhimdir.

Yoshlar, hatto bolalar ham, “korrupsiya nima?” degan savolga javob topib, uning zararini tushunsa, kelajakda u jamiyatda kamayadi. Masalan, maktablarda adolat va halollik darslari, shaffoflik va mas’uliyat mavzularini o‘rgatish korrupsiyaga qarshi eng samarali vositalardan biridir.



Korrupsiyaga qarshi kurash bir martalik tadbir emas, balki kompleks, tizimli va uzluksiz jarayondir. Quyidagi choralar samarali hisoblanadi:

1. Qonunchilikni mustahkamlash va yangi qonunlarni qabul qilish.
2. Davlat xizmatchilarining mas’uliyatini oshirish.
3. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.
4. Fuqarolarning ma’naviy ongini yuksaltirish — halollik, poklik va adolat qadriyatlarini targ‘ib qilish.
5. Butun dunyo hamkorligi: Agar barcha davlatlar birlashib va tajriba almashib korrupsiyaga qarshi harakat qilsa, bu illatni qisqartirish, ba’zi holatlarda hatto yo‘qotish ham mumkin. Global hamkorlik, shaffof moliyaviy tizimlar va xalqaro monitoring bu boradagi samarali vositalardir.

Korrupsiyasiz jamiyat — taraqqiyotning asosiy kafolatidir. Adolat qaror topgan, halollik qadrlangan, qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatda iqtisod rivojlanadi, ilm-fan yuksaladi va inson qadri ulug‘lanadi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashda davlat bilan bir qatorda har bir fuqaro, har bir maktab va oilalar ham faol ishtirok etishi, bolalarni halollik tamoyiliga o‘rgatishi, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishi lozim.

Sarvinoz SALOXIDINOVA,
Andijon viloyati Yuridik texnikum 1-kurs 143-guruh o‘quvchisi.

Bugungi kunda korrupsiya haqida gap ketganda, ko‘pchilikning ko‘z o‘ngiga yuqori lavozimdagilar, qalin jildli papkalar, “hal bo‘lgan” ishlar yoki cho‘ntakda g‘oyib pullar keladi. Ammo korrupsiya degani bu faqat pullar yoki yuqori martabalar orasida bo‘ladigan hodisa emas. Bu, aslida, odamning halolligiga bo‘lgan imtihon.

HALOLLIK IMTIHONIDAN O‘TA OLAMIZMI?

Korrupsiya – jamiyatning eng og‘riqli dardi. U ko‘zga ko‘rinmas, ammo hayotni asta-sekin yemiruvchi illat. Odamlar o‘rtasida ishonchni yo‘qotadi, mehnatning qadrini pasaytiradi, adolatni soya ostida qoldiradi. Korrupsiya bor joyda halollik jim turadi, vijdon esa og‘riydi.

Lekin bugun o‘zgarishlar davri. Endi ko‘p narsa jim o‘tmaydi. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat davlat siyosati, balki odamlarning hayotiy pozitsiyasiga aylanib bormoqda. Korrupsiyani yengish uchun faqat qonun emas, insonning o‘zi halol bo‘lishi kerak.

Har kim o‘z o‘rnida bunga hissa qo‘sha oladi:

• o‘qituvchi bahoni pul evaziga emas, bilim asosida qo‘ysa;

• shifokor inson hayotini pulga almashtirmasa;

• inspektor tartibni pul uchun emas, vijdoni uchun saqlasa;

• fuqaro “bir yo‘lini topamiz” degan oson yo‘ldan voz kechsa.

Halollik — bu bugun shunchaki so‘z emas, bu taraqqiyotning poydevori. Axir, korrupsiya bor joyda rivojlanish orqada qoladi. Bu faqat bir kishining muammosi emas — bu butun xalqning, butun avlodning kelajagi.

Bir dona misol: bir joyda kichik pora evaziga ruxsatnoma berilsa, u yerda keyingi yili bolalar o‘sha “yengillik” evaziga qurilgan xavfli binoda o‘qiydi. Yoki kimdir imtihonda aldasa, ertaga u hal qiluvchi joyda sizning taqdiringizni hal qiladi. Demak, har bir korrupsiya harakati — kelajakdagi adolatsizlik urug‘i.

Endi vaqt halollik tarafida turish vaqti. Korrupsiyaga qarshi kurash — bu faqat davlat idoralarining vazifasi emas, bu har bir fuqaroning vijdoni, farzandlarimizga qanday jamiyat qoldirishimiz haqida qaroridir.

Halol yashash qiyin bo‘lishi mumkin, lekin halol odamning yuzi yorug‘, ko‘ngli tinch bo‘ladi. Chunki u hech kimdan yashirinmaydi, hech kimdan qo‘rqmaydi.

Shunday ekan, har birimiz shunday yashaylikki, bizdan keyingi avlod “bu xalq halol edi” deb faxr bilan aytsin. Bu — eng katta g‘alaba, eng katta boylik va eng katta ishonchdir.

Umidaxon BEKMIRZAYEVA.

YANGI QIYOFADAGI NAMUNAVIY TUMAN VA SHAHAR TASHKIL ETILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-oktyabrdagi PQ-298 son qaroriga ko‘ra, tanlab olingan tumanlarda 200 gektardan yer auksionga chiqariladi va shahar va tumanlarga «Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi tuman (shahar)» maqomini berib, ularni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun namunali hududlarga aylantiriladi.

Hududlarda aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun qulay muhit yaratish va infratuzilmani yaxshilash orqali tadbirkorlikni rivojlantirishga katta turtki berish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, qishloq, mahallalariga shahar muhiti va yashash sharoitlarini olib kirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi qishloq, tumanlarida 2 ta dan mahallaga «Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla» maqomini berib, ularga shahar muhiti va yashash sharoitlarini olib kirish bo‘yicha yangi yondashuvlar amaliyotga joriy etilmoqda. Shuningdek sanoatni jadal rivojlantirish kerakligi belgilandi. Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla va unga tutash bo‘lgan mahallalardagi bo‘sh yer maydonlarida mikrosanoat, hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish markazlarini tashkil etish sanoat zonalaridagi bo‘sh yer maydonlarida istiqbolli investitsiya loyihalarini joylashtirish hamda muhandislik infratuzilmasi mavjud hududlarda yangi sanoat zonalarini tashkil etish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari 2026-yil 1-fevralga qadar «Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi tuman» maqomi berilgan tumanlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi PF-18-son Farmoniga muvofiq, tuman hokimliklari zaxirasida mavjud bo‘sh turgan yer maydonlari hajmidan kelib chiqqan holda kamida 200 gektardan qishloq, xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarini elektron onlayn auksion savdolariga chiqarilishi belgilab qo‘yildi.

Jamshidbek ISROILOV,
“Elektron-onlayn auksionlarni tashkil etish” AJ Andijon viloyati hududiy vakili.



QARZ SHARTNOMASI TASDIQLASH TARTIBINI BILASIZMI?

Inson hayotida qarz oldi-berdisi eng ahamiyatli masalalardan biri hisoblanadi. Har qanday inson hayotda yashar ekan, qarz oldi-berdisini boshidan kechirmay iloji yo‘q.

Qarz oluvchining pul va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan boshqa ashyolardan foydalanishi faqatgina ularni iste’mol qilish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, qarz oluvchiga qarz obyektidan foydalanish muddati tugagandan so‘ng aynan shu pul yoki ashyoni qaytarish majburiyati yuklanishi mumkin emas. Qarz shartnomasining konstruksiyasiga yaqin bo‘lgan ba’zi shartnomalar (tekin foydalanish, mol-mulkni ishonchli boshqarish)da esa shartnoma obyekti foydalanish jarayonida o‘zining xususiyatlarini yo‘qotmaydigan individual – belgilangan ashyolar bo‘lganligi sababli aynan olingan ashyoning o‘zi qaytarilishi talab qilinadi.

Fuqarolik kodeksining 732-moddasiga asosan qarz shartnomasi bo‘yicha bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilangan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo‘la yoki bo‘lib-bo‘lib, o‘shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Hayotda esa ba’zan qarz olib, qaytarib bermaslik oqibatida yaqin qarindoshlar va qadrdon do‘stlar o‘rtasida nizo kelib chiqayotganiga guvoh bo‘lamiz. Natijada qarz berib pulini qaytarib ololmagan yurtdoshlarimiz sudlarga murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Ammo sudga murojaat qilish uchun qo‘lida yuridik hujjat bo‘lishi kerakligini ko‘pchilik fuqarolarimiz haligacha tushunib yetmaganligi achinarli holdir.

Qarz shartnomasini notarial tartibda rasmiylashtirilishi kelgusida taraflar o‘rtasida nizo kelib chiqqan taqdirda sudgacha yetib bormaslikka olib keladi.

Qarz shartnomasi shartiga ko‘ra, qiymatga ega olingan narsa shartnomada ko‘rsatilgan vaqtda qaytarilishi lozim. Bordi-yu, qaytarish muddati shartnomada ko‘rsatilmagan bo‘lsa, qarz qarzni beruvchi talab qilgan vaqtda qaytarilishi kerak.

Chunki notariuslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish qonunda belgilab qo‘yilgan.

Fuqarolik kodeksining 733-moddasida qarz shartnomasining shakli ko‘rsatilgan bo‘lib, fuqarolar o‘rtasida qarz shartnomasi, agar bu qarzning miqdori eng kam oylik ish haqining o‘n baravaridan ortiq bo‘lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi, shartnomadagi taraflardan biri yuridik shaxs bo‘lganida esa, summasidan qat’i nazar, yozma shaklda tuzilishi shartligi belgilab qo‘yilgan. Bundan esa, eng kam ish haqining o‘n baravaridan ortiq bo‘lmagan pul summasi qarzga berilgan holatlarda shartnoma og‘zaki shaklda ham tuzilishi mumkinligi anglashiladi.

Qarz shartnomasi taraflardan birining talabi bo‘yicha xohlagan notarial idorada tasdiqlanishi mumkin.

Mazkur hujjatdan foydalanishni istagan fuqarolar quyidagi hujjatlar taqdim etadi. Jismoniy shaxslar uchun:

Fuqarolarning shaxsi aniqlanadi.

O‘zbekiston fuqarolarining shaxsi — O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti;

harbiy xizmatchilarning shaxsi — harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy bileti bundan mustasno);

chet el fuqarolarining shaxsi — ularning milliy pasporti (qonun hujjatlariga muvofiq chet el fuqarolari tegishli ichki ishlar organlari tomonidan ro‘yxatga olinishi lozim) yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditatsiya kartochkasi;

fuqaroligi bo‘lmagan shaxs uchun — O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi.

Yuridik shaxslar uchun:

Yuridik shaxs vakolatli organining qarz shartnomani tuzish haqidagi hujjati (qaror, umumiy majlis bayonnomasi, kuzatuv kengashining qarori, buyruq va hokazo);

Bitim vakil tomonidan tuzilgan taqdirda, uning nomiga berilgan ishonchnoma va (yoki) vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar (qaror, umumiy majlis bayonnomasi, kuzatuv kengashining qarori, buyruq va hokazo) bilan tasdiqlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, fuqarolar o‘rtasida qarz shartnomalarini rasmiylashtirishda qonun talablariga rioya qilinishi hamda zimmalaridagi vazifani o‘z vaqtida ado qilishlari natijasida bu turdagi nizolarning kamayishiga xizmat qiladi.

Muxtasarxon TO‘RAYEVA,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, Майбахча кўчаси, 123-уйда яшаб 2025 йил 24 апрель куни вафот этган марҳум **МАМАТОВ ТУЛАНБОЙ ИКРАМОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, 3-кичик даҳа, 38-уй, 13-квартирада жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Г.Х.Киргизбаев нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Анҳор МФЙ, Анҳор кўчаси, 44-уйда яшаб, 2025 йил 1 май куни вафот этган марҳум **ERGASHEV MURODJON MUXTAROVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2019 йил 4 ноябрь куни вафот этган марҳум **SULAYMANOV GOFURJON ABDUMALIKOVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2021 йил 7 ноябрь куни вафот этган марҳум **MAMATBAYEVA BUSARA SHAMSIYEVNA,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2012 йил 3 июль куни вафот этган марҳум **АХМЕДОВА АФТОВХОН АХМЕДОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2009 йил 18 январь куни вафот этган марҳум **ТУРГУНОВ КОМИЛЖОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2022 йил 30 ноябрь куни вафот этган марҳум **XODJIBEKOV IBRAGIM RAXMATULLAYEVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2004 йил 14 февраль куни вафот этган марҳум **АБДИКАРИМОВА МУКАДАМ КОДИРОВНА**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Туячи МФЙ, Нуробод кўчасидаги уйда яшаб, 2018 йил 29 декабрь куни вафот этган марҳум **АМАНБАЕВ АРТИКБАЙ,**

Избоскан тумани, Наврўзобод МФЙ, Зарчи кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 18 сентябрь куни вафот этган марҳум **МИРЗАХАЛОВ АКБАРАЛИ АХМАДАЛИЕВИЧ,**

Избоскан тумани, Истиқлол МФЙ, Озодлик кўчасидаги уйда яшаб, 2002 йил 1 ноябрь куни вафот этган марҳум **ВОХИДОВ ТОШТОНБОЙ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2021 йил 15 февраль куни вафот этган марҳум **ЖЎРАЕВ АБДУЛЛАЖОН,**

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2018 йил 5 март куни вафот этган марҳум **ХАКИМОВ ИЛХОМЖОН МУХТОРЖОНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,


Қўрғонтепа тумани, Қорасув шаҳри, Пахтачи МФЙ, Пахтачи кўчасидаги уйда яшаб, 2022 йил 22 декабрь куни вафот этган марҳум **ҚОСИМОВ ИЛХОМЖОН МАЛИКЖОНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа тумани, Мустақиллик кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.А.Зайнобиддинов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Терак таги МФЙда яшаб, 1996 йил 5 мартда вафот этган марҳум **ИБРАГИМОВА НАДЖИЕ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Турамгузар МФЙ, Мерганбоғи кўчасида яшаб, 2009 йил 17 ноябрда вафот этган марҳум **IKROMOV ABDURASHID XXX**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Хамза кўчаси, 2-уй, 4-квартирада жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Мўйдинов нотариал идорасига,

Улуғнор тумани, Шахриобод МФЙда яшаб, 2007 йил 22 мартда вафот этган марҳум **СОИПОВ ТОЖИМАМАТ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Улуғнор тумани, Шахриобод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Б.Ўрмонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

SUN’IY INTELLEKT RIVOJIDA YANGI BOSQICH



Dunyoda raqamli texnologiyalar jadal sur’atlarda rivojlanib borayotgan bir paytda, sun’iy intellekt (SI) iqtisodiyot, ta’lim, boshqaruv va tibbiyot kabi ko‘plab sohalarning ajralmas qismiga aylanmoqda. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda, SI texnologiyalarini joriy etish va milliy iqtisodiyotni transformatsiya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Joriy yilning 22-oktyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmon SI sohasini rivojlantirishda muhim bosqich bo‘lib, kelgusi yillarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarni belgilaydi.

Farmonga muvofiq, SI sohasida bir qator strategik yo‘nalishlar belgilandi. 2026-yilga qadar kamida 100 ta SI loyihasini amalga oshirish va davlat boshqaruvi, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish rejalashtirilmoqda. 2030-yilgacha SI infratuzilmasini rivojlantirish uchun 1 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb qilinishi nazarda tutilmoqda. Bu mablag‘ server quvvatlari, ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash uchun maxsus markazlar hamda innovatsion platformalarni yaratishga xizmat qiladi.

2026-2027 o‘quv yilidan SI fanini maktab va oliy ta’lim dasturlariga kiritish rejalashtirilmoqda. Yangi mavzular orasida sun’iy intellekt asoslari, algoritmlar va dasturlash nazarda tutilmoqda. Shuningdek, 2026-yilga qadar oliy ta’lim muassasalarida 15 ta SI laboratoriyasini ishga tushirish va yoshlarning amaliyotda tajriba orttirishiga zamin yaratish rejalashtirilmoqda.

SI sohasidagi siyosat va loyihalarni muvofiqlashtirish uchun Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida Maslahatlashuv kengashi tashkil etiladi. 2025-yil yakuniga qadar “ai.gov.uz” milliy portali ishga tushirilib, SI bo‘yicha amalga oshirilgan loyihalar, startaplar va o‘quv platformalari haqidagi ma’lumotlar bir joyda jamlanadi.

Yoshlarning SI sohasiga qiziqishini oshirish maqsadida qator chora-tadbirlar belgilangan. 2026-yildan “Sun’iy intellekt yo‘nalishida eng yaxshi startap” tanlovi Prezident sovrini uchun o‘tkaziladi. Maktab dasturlariga SI asoslari kiritiladi, “Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi amalga oshiriladi va “Yangi O‘zbekiston” universitetida SI bo‘yicha trener-o‘qituvchilar tayyorlanadi. Shuningdek, IT va SI yo‘nalishlari bo‘yicha davlat grantlari 35 foizga oshiriladi va hududlarda SI texnologiyalarini rivojlantirish uchun hokimliklarda maxsus maslahatchi lavozimlari joriy qilinadi.

Yurtimizda sun’iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha sohalarda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va yoshlarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Farmonning ijrosi SI ekotizimini shakllantirish va global raqobatga mos kadrlar tayyorlashda muhim qadam bo‘ladi.

Muhammadjon MA’MURJONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi, Andijon viloyat filiali inspektori.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH YO‘LIDA TARG‘IBOT TADBIRLARI O‘TKAZILMOQDA



Andijon viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi Karantin tadbirlarini ta’minlash guruhi xodimlari va Andijon viloyati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi mutaxassislari bilan hamkorlikda viloyat hududidagi "Dehqon bozorlari"da aholiga sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarini sotilishini oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘tkazilayotgan profilaktik tadbirlarda aholi ko‘p iste’mol qiladigan, sut va go‘sht mahsulotlari, tuxum, baliq, poliz hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, iste’molga yaroqliligi darajalari bo‘yicha tegishli hujjatlari ko‘zdan kechirilib, sifatsiz mahsulotlar savdosining oldini olish yuzasidan targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, viloyat hududidagi dehqon va oziq-ovqat bozorlari hamda karantin maskanlarida nazorat profilaktik tadbirlari bilan bir qatorda veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etilishi bo‘yicha targ‘ibot tadbirlari olib borilyapti.

Navbatdagi tadbirlar Asaka tumanidagi bozorlarida olib borildi.

S. SULAYMONOV,
Andijon viloyat IIB JXX JTSB KTTG safdor xodimi.

G‘AROYIB NUSXALAR

(Kelajak hikoyasi yoxud fantastik hajviya)

Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit - maqol.

Yozuvchilar o‘zlarining navbatdagi sayyoralararo seminar kengashiga Marsdagi muhtasham "Adabiyot saroyi" da to‘planishdi. Bugun ular saturnlik mashhur adib Tvan Vekning yangi trilogiyasini muhokama qilishadi. Bu kengashda adibning ko‘pgina asarlari muhokama qilingan, yuksak baholangan va trillionlab nusxada chop etilib, Yer va Oyda, Saturn va Venerada, Mars va Yupiterda ham o‘z o‘quvchilarini topgan.

Tvan Vekning tarixiy mavzuda yaratgan yangi trilogiyasining ham dastlabki ikki romanini kengashning barcha ishtirokchilari asosan yuksak baholashdi. Biroq… muhokama qatnashchilarning barchasi asarning so‘nggi kitobini tushunolmaganliklarini ta’kidlashar va bu asardagi nomlari ham, gaplari va qiliqlari ham g‘aroyib bo‘lgan kimsalarning yerliklar tarixidan olib yozilgan trilogiyadagi ajoyib siymolar orasiga nima uchun kirib qolganligini anglasha olmaganini bildirishardi.

-Roman qahramonlaridan biri o‘g‘lini yetaklab institutga boradi,- deya gap boshladi yupiterlik tanqidchi,-allaqanday "pora" ham olib boradi,- institutga kiradigan yigitni otasi yetaklab borishiga qaysi kitobxon ishonadi? Bundan tashqari anavi "pora" degan so‘zning ma’nosini kim tushunadi?!

Bu savol qarshisida Marsning taniqli adiblari ham, veneralik ko‘zga ko‘ringan fan arboblari ham lol qolishdi. Faqatgina yerli taniqli tilshunos, 21 yoshli akademik Valeriy Botirovgina qadimiy kitoblarda "pora" degan so‘zni uchratishganini, lekin bu so‘z bir necha asrlardan buyon foydalanilmay qolib ketgani uchun qanday ma’noni anglatishini aniqlash mushkul bo‘layotganligini aytdi.

Bu qismda "ishyoqmas", "tanbal", "olibsotar", "piyonista", "g‘iybatchi", "yumaloq xat" kabi qator atamalar ham uchrardiki, bu so‘zlarning ma’nosi hech kimga ayon emasdi.

Adibning tarixni titkilayverib o‘zi ham zo‘rg‘a tushungan so‘zlarni tushuntirish uchun urinishlari behuda ketdi - bu narsalar kengash ishtirokchilarining tasavvuriga sig‘masdi.

Tarix fanining arboblaridan biri so‘zga chiqib, yerliklarning tarixi bilan ancha mukammal tanish bo‘lsa-da, asar qahramonlari sotuvchi Kamberdi Uribqoldiyev, uning allaqanday "chayqov"mi degan yerda o‘ralashib yuradigan (chayqov so‘zining ma’nosini ham hech kim tushunmasdi!) hurkak ma’shuqasi Puloyim Ehtiyotkorovalarni, G‘iybatxo‘jayev, Byurokratov, Xurmachaqiliqov kabi personajlarni hech ko‘z oldiga keltira olmayotganligini, bugungi kitobxonni esa ularning harakatlariga ishontirib bo‘lmasligini ta’kidladi.

…Tanqidiy fikrlar shunchalar ko‘p va asosli ediki, adibning o‘zi ham yer yuzida qachonlardir asarning shu qismida tasvirlangan qahramonlaridek "nusxalar" yashaganiga shubhalanib qoldi. Shuning uchun ham kengashning kitobxonga mutlaqo tushunarsiz bo‘lgan uchinchi romanni trilogiyadan chiqarib tashlash haqidagi hukmidan ham zarracha xafa bo‘lmadi. Aksincha, yig‘ilish so‘nggida so‘zga chiqib tanqidiy fikrlar uchun minnatdorchilik bildirdi va uchinchi kitobni butunlay yangidan yozish maqsadida yerliklar tarixini chuqurroq o‘rganish uchun bugunoq Yerga jo‘nab ketishini aytdi.

Muhokama tugashini bilib yetib kelgan tegishli nashriyot vakillari kengash ma’qullagan ikki romanni shu zumda qabul qilib olishdi. Asarni qayta ishlash emas, yangidan yozishga odatlangan muallif "G‘aroyib nusxalar " deb atalgan qo‘lyozmani kengash o‘tgan binodan chiqaverishdagi avtomat yashikka tashladi va yashikning uzunchoq teshikchasidan chiqib qolgan bir juft qog‘ozni olib bittasini hamrohi yerlik tilshunos olimga uzatdi. Bekat tomonga burilisharkan olimning nigohi qog‘ozdagi yozuvga tushdi: topshirilgan makulatura evaziga berilgan o‘sha jajjigina qog‘ozchaning bir tomoniga "Marsliklar sizga oq yo‘l tilaydilar!" deb, ikkinchi tomoniga esa, Sayyoralararo kosmobusda yurish uchun yo‘l chiptasi" deb yozilgan edi…

Habib SIDDIQ

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 21.11.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 21.11.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li